



THE IMPORTANCE OF IDEOLOGICAL EDUCATION IN RAISING A HEALTHY GENERATION

Azamat Beshumovich Khudoykulov

Acting Associate Professor, Department of History and Social Sciences

University of Economics and Pedagogy

E-mail: azamatxudoykulov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ideological education, spiritual maturity, youth worldview, national values, spirituality, globalization, upbringing.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article examines the role and significance of ideological education in shaping the worldview of spiritually mature youth. It analyzes the influence of globalization, information flows, and value-based factors on young people's moral development, social activity, and perception of the world. The study explains how ideological upbringing fosters critical thinking, strong life principles, and commitment to national and universal values among the younger generation.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MAFKURAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

Azamat Beshumovich Xudoykulov

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsent. v.b.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

E-mail: azamatxudoykulov@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zl: g'oyaviy tarbiya, ma'naviy barkamollik, yoshlar dunyoqarashi, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, globallashuv, tarbiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayonida g'oyaviy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida shakllanayotgan axborot maydoni, yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadigan omillar yoritilgan. G'oyaviy tarbiya orqali yoshlarni mustahkam hayotiy pozitsiya, tanqidiy fikrlash,

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish jarayoni ilmiy asosda izohlangan.

ВАЖНОСТЬ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Азамат Бешимович Худойкулов

и.о.доцент кафедры Истории и социальных наук

Университета экономики и педагогики

E-mail: azamatxudoykulov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеологическое воспитание, духовная зрелость, молодежное мировоззрение, национальные ценности, духовность, глобализация, воспитание.	Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение идеологического воспитания в формировании мировоззрения духовно-зрелой молодежи. Анализируются факторы, влияющие на ценностные ориентации, социальную активность и духовное развитие молодого поколения в условиях глобализации и информационных потоков. Научно-обосновано, как посредством идеологического воспитания у молодежи формируются критическое мышление, устойчивая жизненная позиция, приверженность национальными и общечеловеческими ценностями.
---	---

Kirish. Ma'furaviy tarbiya talabani ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarini oddiygina qabul qilib olishinagina emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishini, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy hodisalarga ma'furaviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bu ko'nikmalar talaba dunyoqarashini, bilimlarini milliy istiqloq g'oyasi – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) nuqtai nazaridan sekin-asta boyitib borish bilan ta'minlanadi. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda uning dunyoqarashi, bilim darajasi, madaniy va siyosiy saviyasi, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga va qonun-qoidalarga mos kelishi eng muhim ahamiyatga ega. Chunki, inson mavqei jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxs kamolining asosiy manbai jamiyatda, uning faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlar tuzumida ekanligini tarix tajribasi tasdiqlab bergan.

Hozirgi davrda biz fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi va ongi qanday bo'lishiga befarq qaray olmaymiz, kelajakda ham har tomonlama kamol topgan, bilimdon va

ishbilarmon, real hayotni va qonun-qoidalarini to'g'ri idrok qila oladigan, ongli va faol, o'z burchiga sadoqatli erkin shaxsni tarbiyalashimiz zarur. Erkin shaxs yashash maqsadini va o'z mavqeini to'g'ri aniqlab olishga, xurofiy tasavvurlardan ozod holda aql-idroki, kuch-g'ayrati va vijdoniga tayanib, halol mehnat va faoliyati bilan turmush sharoitini yaxshilashga intiladigan bo'lishi zarur.

“Ma'naviy barkamol yoshlar tarbiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida eng muhim ustivor yo'nalishlardan biri biri sifatida belgilangan. Yoshlarning sog'lom dunyoqarashi, ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni yot g'oyalardan asrash borasida davlat tomonidan tizimli ishlar oli borilayotgani alohida qayd etiladi” [1; 34-b.].

Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo'lishini ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo'lishga o'rgangan yoshlar mehnatsevar bo'ladilar, ularda juda yoshligidanoq ma'lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo'sh vaqtlarida, ular o'zlari sevgan ish bilan shug'ullanishga o'rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo'ya ishlar bilan shug'ullanishga vaqti ham bo'lmaydi.

Odobli, mehnatsevar, sabr-toqatli farzandlar ota-ona qoldirgan boylikka boylik qo'shadi, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topadi. Ota-onadan meros bo'lib qolgan axloq va odob esa bir umr tugamaydigan eng katta boylikdir. O'zbek xalqi maqolida aytilganidek, meros yo'li bilan orttirilgan moddiy boylik yomon, akadan qolgan boylik undan ham yomonroq, xotindan qolgan boylik esa ularning hammasidan ham yomonroqdir. Yoshlar o'z mehnati, peshona teri bilan topgan boylikni ko'proq qadrlaydilar.

Ota-onalar farzand tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'analarga, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida yaxshi natijalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, usullari esa o'zgarib, yangilanib, takomillashib turadi. Bunga har bir konkret tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, ehtiyojlari ham ta'sir etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

“Har bir inson uchun, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, - Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga milliy

manfaat nuqtai-nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz» [2; 23-b.] deydi.

Binobarin, jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash, kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir. O'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilasiga mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki muttasil va izchil g'oyaviy tarbiya samarasi o'laroq, yuzaga keladi [3; 9-b.]. Oiladagi totuvlik, ahillik, mehr-shafqat hislatlari uluksiz ravishda turli shakllarda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlari atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning ezgu maqsadimiz esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish asosida g'oya va mafkuramizni e'tiqod qilinadigan muqaddas tuyg'uga aylantirishdir. Chunki, e'tiqodga aylanmagan g'oyani g'oya, milliy mafkurani mafkura deb bo'lmaydi.

Shuning uchun ham, yoshlarga doir olib borilayotgan islohotlarda, davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan, butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim hayotiy masalalar ilgari surilgan. Unga ko'ra, o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish;

-o'quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish..., yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida, Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga, sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish;

-yoshlar bilan muntazam ravishda tinimsiz ishlash, iqtidorli bolalarni qidirib topish, ularning eng yaxshi xorijiy o'quv markazlarida professional ta'lim olishi uchun sharoit yaratish;

-O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojiga mos keladigan, yuksak malakali xorijiy mutaxassislar bilan raqobat qila oladigan kadrlar salohiyatini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish;

-ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash va h. k.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotda tarixiy-siyosiy yondashuv asos qilib olingan. Binobarin, ta'lim sohasida belgilangan bu vazifalar, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tamoyillari, uning maqsadi va mohiyati bilan ham uzviy bog'liqdir.

Fikrimizni asoslash uchun milliy mafkuraning mazmuniga e'tibor beraylik:

- iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotning barcha sohalariga singib ketgan sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qolgan yaramas merosni uzil-kesil tugatishdan;

- mustaqillikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy-huquqiy zaminlarini mustahkamlashdan;

- O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini asoslashdan;

- fan-texnika yutuqlarini rivojlantirib, jamiki zamonaviy yangiliklarni chuqur o'rganib, ularni hayotga, ishlab chiqarishga ijodiy, oqilona joriy etish va O'zbekistonni jahon bozori talablariga mos keladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan mamlakatga aylantirish;

- ijtimoiy adolat, qonunchilik tantana qilishini ta'minlaydigan fuqarolik jamiyati qurish, tinchlik, osoyishtalik, milliy hamkorlik, hamjihatlik, barqarorlikni ta'minlashdan;

- inson ma'naviy kamolotini tezlashtirishdan;

- eskicha aqidalardan, diniy ekstremizm, vahobiychilikdan, har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslikdan, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan, e'tiqodi mustahkam, iymoni butun, irodasi baquvvat, g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usi kuchli kishilarni tayyorlash, tarbiyalashdan;

- yoshlar qalbiga vatanparvarlik, el yurtga sadoqat, insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirishdan;

- kishilarni doimo ogoh bo'lib turishga da'vat etish..., mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega ekanligini odamlar ongi va qalbiga yetkazishdan;

- yoshlarda mehnatsevarlik va insonparvarlik, vijdonlilik va imonlilik, halollik, milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashdan.

“Ma'naviy barkamollikning yana bir muhim jihati – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligidir. Yosh avlod milliy merosni chuqur bilgan holda global tafakkurga ega bo'lishi kerak. Bu uyg'unlik ularning dunyoqarashini kengaytiradi, zamonaviy jamiyatda faol b'lishiga xizmat qiladi” [4; 47-b.].

Har qanday taraqqiyot va tamaddunlar turli xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlari va intilishlari uyg'unlashuvidan tug'iladi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi o'ta murakkab, qaltis va mas'uliyatli davri ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mafkuraviy ta'lim-tarbiya

markazida yosh avlod turishi zarurligini, farzandlarimizning aql-zakovatli, teran fikrli, mustahkam e'tiqodli qilib tarbiyalanishlariga jiddiy e'tibor berishni, ularning soddalik qilib soxta oqimlar yo'liga kirib pana-pasqadamlarda pisib yurgan har xil johil odamlarning gapi va yo'liga kirib ketishlariga aslo yo'l qo'yib, beparvo qarab bo'lmaydi. O'z navbatida, xalqimiz tarixidagi buyuk allomalarni, xususan, ma'rifatli dunyo buxoriylar, farg'oniyalar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklarni qanchalik izzat ikrom qilgan bo'lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak.

Xulosa va takliflar. Mafkuraviy tarbiya – yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali barkamol avlodni voyaga etkazadi. Shuning uchun ham bugungi sharoitda mafkuraviy tarbiya strategik ahamiyatga ega jarayon sifatida e'tirof etiladi. Buning uchun esa ta'lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, milliy modelning hayotiyligini, uning milliy g'oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta'minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -- T.:O'zbekiston, 2000.
3. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T.:«Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2002.
4. Qodirov M., Qahhorova G. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.